



DECORTINA NEW

TEXNIK TAVSIF

Texnik xususiyatlari

DECORTINA NEW – mot va silliq pardozi beruvchi, ajoyib yuvilish hamda yopish qobiliyatiga ega ekologik bo‘yoq bo‘lib, u tutun va nikotin bilan qoplangan (ifloslangan) yuzalarda foydalanish uchun g‘oyat mos keladi. Bo‘yoq suvli dispersiyadagi maxsus akril smolalari, noorganik pigmentlar va boshqa qo‘shimchalardan tarkib topgan bo‘lib, bu uni tutun, qurum va nikotin dog‘lari bo‘lgan, ishlov berish qiyin hisoblangan yuzalarga surtish uchun juda qulay qiladi. Mahsulot "A+" emissiya klassi bo‘yicha sertifikatlangan (Fransiya Rasmiy Gazetasining 2011-yil 19-apreldagi qarori).

Qo‘llanish sohasi

Tutun va nikotin bilan ifloslangan ichki devorlar.

Asosni (yuzani) tayyorlash

Yuzani diqqat bilan tozalab, ko‘chayotgan qismlarini olib tashlang. Mavjud bo‘yoq qatlamlarining adgeziya (yopishish) darajasini tekshirib ko‘rish tavsiya etiladi, chunki agar ularning sifati yomon bo‘lsa, DECORTINA NEW mahsuloti surtilganda ko‘chib tushishi mumkin.

Surish usuli

Surtish jarayoni asosning turiga bog‘liq.

Ogohlantirishlar:

- Juda ham uvalanuvchan (to‘kiluvchan) yuzalar uchun OIKOS kompaniyasining ichimlik suvi bilan 1:4 nisbatda suyultirilgan CRILUX gruntidan bir qatlam surtish tavsiya etiladi. DECORTINA NEW bo‘yog‘ining birinchi qatlamini surishdan oldin kamida 3 soat kuting.
- Moyli/yog‘li yuzalar avval maishiy ehtiyojlar uchun mo‘ljallangan yog‘sizlantiruvchi yuvish vositasi bilan yaxshilab tozalanishi kerak.

Yuza turiga qarab, qatlamlar orasida 6-8 soatlik tanaffus bilan DECORTINA NEW bo‘yog‘idan 2 qatlam surting.

Texnik xususiyatlari: Surtish jarayoni

Ko‘rsatkich	Tavsif / Shartlar
Suyultirish	Foydalanishga tayyor
Sarfi	2 qatlamda: 6-8 kv.m/l



ООО "COLORLAB"

г. Ташкент, Яшнабадский район Паркентский рынок, 13-блок

Тел: +998 98 304 30 33 +998 99 866 89 88



Ko'rsatkich	Tavsif / Shartlar
Surtish asboblari	Cho'tka, valik
Grunt (astar bo'yog'i)	OIKOS kompaniyasining CRILUX yoki NEOFIX gruntlari
Surtish harorati	+5°C dan +36°C gacha (nisbiy namlik 80% dan yuqori bo'lmagan holatda)
Yuzaki qurish vaqti	2 soat (20°C harorat va 75% nisbiy namlikda)
To'liq qurish vaqti	3 kun (20°C harorat va 75% nisbiy namlikda)

Texnik xususiyatlari: Mahsulot

Ko'rsatkich	Tavsif / Qiymat
Tarkibi	Suvli dispersiyadagi akril smolalari, organik va noorganik pigmentlar, surtish va plyonka hosil bo'lish jarayonini osonlashtiruvchi maxsus qo'shimchalar.
Solishtirma og'irligi	1.43 kg/l +/- 3%
pH	8 - 9
Yopishqoqligi	2,300 +/-5% CPS Brukfeld (25°C da RVT 20 aylanish/min).
Saqlash harorati	+2°C dan +36°C gacha. Muzlashdan asrang
Olovga reaksiya	Agar tarkib yonmaydigan yuzaga surtilsa – manfiy (yonmaydi); qurigan holatdagi qalinligi 0,600 mm dan kam bo'lgan suv asosidagi material.
Bug' o'tkazuvchanligi	1.9 m (ruxsat etilgan maksimal chegara 2 m DIN 52 615)
Yuvishga chidamliligi	DIN 53 778 normasiga javob beradi, kamida 1000 abraziv (ishqalanish) sikliga bardosh beradi.
Ishqalanishga chidamliligi	DIN 53 778 normasiga javob beradi, 5000 dan ortiq abraziv sikliga bardosh beradi

Ko'rsatkich	Tavsif / Qiymat
Emissiya klassi	A+ (Fransiya Rasmiy Gazetasining 2011-yil 19-apreldagi qarori)
Uchuvchi Organik Birikmalar (VOC) ajralishi bo'yicha cheklov	2004/42/CE Ko'rsatmasiga (Direktiva) muvofiq tegishli klass: A/ a; VOC: 14 g/l (maksimal); II-faza cheklovi (1.1.2010-yildan): 30 g/l
Rangi	Oq
Qadoqlanishi	4 litr

Xavfsizlik ma'lumotlari

Mahsulot tarkibida xrom va qo'rg'oshin kabi og'ir metallar mavjud emas. Shundan tashqari, tarkibida zaharli, aromatik, xlor tutuvchi erituvchilar yo'q. Sog'liq uchun xavfli bo'lgan polimerizatsiya jarayoni kuzatilmaydi. Ko'rsatmalarga muvofiq ishlatilganda mahsulot xavfsiz modda hisoblanadi. Suv asosidagi bo'yoqlar bilan ishlashda odatdagi ehtiyot choralariga rioya qilish tavsiya etiladi. Saqlash va tashish uchun hech qanday maxsus choralar ko'zda tutilmagan; idishlar, qoldiqlar va tasodifiy to'kilgan joylar qum, tuproq va shunga o'xshash inert adsorbent materiallar yordamida yig'ib olinishi hamda amaldagi milliy yoki mintaqaviy qoidalarga muvofiq utilizatsiya qilinishi kerak. Tashish xalqaro shartnomalarga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

Asosiy texnik shartlar

Yuzani yaxshilab tozalab, ko'chayotgan qismlarini olib tashlang. (Asosning turiga qarab) OIKOS kompaniyasining CRILUX yoki NEOFIX gruntini surting. Qatlamlar orasida 6-8 soat kutilgan holda, OIKOS kompaniyasining tutun va nikotinga qarshi, A+ emissiya klassiga mansub DECORTINA NEW ekologik bo'yog'idan ikki qatlam surting.

Surtishning barcha qoidalariga rioya qilinishi shart.

Eslatmalar

OIKOS srl kompaniyasi ushbu texnik tavsifda keltirilgan ma'lumotlar tegishli texnik va ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda eng xolis va aniq tarzda taqdim etilganini kafolatlaydi.

Yuqorida aytib o'tilganlarga qaramay, OIKOS o'z mahsulotini qo'llash natijasida olingan natijalar uchun hech qanday javobgarlikni zimmasiga olmaydi, chunki mahsulotni surish va qo'llash usullari kompaniyaning nazorati yoki tekshiruvi doirasidan tashqaridadir.

Shu sababli, har bir mahsulotning muayyan sharoitga va har bir alohida holatga mos kelishini oldindan tekshirib ko'rish tavsiya etiladi.